

## JALOLIDDIN MANGUBERDINING ISTILOCHILIK YURISHLARI

**BEKDURDIYEV SHOHRUH DAVRONBEK O'G'LI***Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti**Traix yo'nalishi 3-bosqich talabasi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberding o'z vatanining ozodligi va erki uchun olib borgan kurashi xamda qahramonliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Jaloliddin Mangu berdi mo'g'ullarga qarshi kurash bilan bir qatorda qo'shni davlatlarni xam mo'g'ullarga qarshi kurashda birlashtira olganligi xamda o'zining davlatini tashkil qilishi va o'limiga qadar judda katta xududlarni idora etganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Chingizxon, Xo'ru, Hindiston, Ozarbayjon, Gurjiston Xolsulton Sind mo'g'ul, Qandaxor.*

**KIRISH**

Birinchi Prezidentimiz har bir o'zbek farzandi "mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimizning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turushi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan".[1] Ayniqsa mustabid tuzum davrida "... Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?" degan savollarni o'ziga-o'zi berishi kerakligini qayta-qayta uqtirardilar. Bu masalada "O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo'qmi? "[2] degan zaruriy savolni beradi va sho'rolar davrida o'zgalar yozib bergan soxta g'oyalar asosida yozilgan tarixni qayta ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlardilar. Jaloliddin xorazmshoh Alouddin Muhammadning Oychechak ismli xotinidan tug'ilgan to'ng'ich o'g'li, binobarin, taxtning qonuniy vorisi edi. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Biroq Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Muhammad Xorazmshohning kenja o'g'li Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkarda ekanligini namoyish etgan. Turkon xotun Oychechak va uning farzandini g'oyat yomon ko'rgani holda, o'zining qabiladosh va urug'dosh kelinidan tug'ilgan nabirasi Qutbiddin O'zloqshohga har taraflama homiylik qilardi. Nasaviy naql etib o'tgan bir voqea Turkon xotunning shaxsi va uning o'z nabirasi Jaloliddinga munosabati haqida ravshan tasavvur beradi. Tarixchining yozishicha, mo'g'ullarning siquvidan og'ir ahvolda qolgan Turkon

xotunga mulozimlardan biri Jaloliddinning kuch-qudrati haqida so'zlab, uning panohiga qochib borishni maslahat solganida, Turkon xotun shunday javob beradi: «Oychechakning o'g'lining marhamatiga qaram bo'lmog'im qoluvmidi? Bundan ko'ra Chippigixon qo'lida tutqun bo'lish va hozirgi xo'rliklarim afzalroh!» Manbalardan ma'lum bo'lishicha, qang'li (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, boyavut) qabilasiga mansub bo'lgan bu malika Xorazmshohlar davlatida ikkinchi hukmdor darajasida ish ko'rar, saltanatning barcha ishlariga aralashardi. Ketma-ket muvaffaqiyatsizliklardan o'zini o'nglolmay, dushman ta'qibi ostida Kaspiy dengizi bo'ylariga borib qolgan xorazmshoh Muhammad o'limi oldidan, onasi Turkon xotunning mo'g'ullarga asir tushganini eshitganidan so'ng o'z hukmini bekor qiladi va o'g'illari Jaloliddin, O'zloqshoh va Oqshohni huzuriga yig'ib, vasiyatini bayon qiladi: «Saltanat rishtalari uzilib, davlat asoslari bo'shashdi va qulab tushdi. G'animning maqsadi endi ayon: u tirnoqlari va tishlari bilan mamlakatga chang solgan. Men uchun undan (ya'ni, g'animdan) faqat o'g'lim Manguberdining qasos olishga qodir. Shuning uchun uni taxt vorisi etib tayinlayman, sizlar esa unga itoat etmog'ingiz lozim».[2] Xorazmshoh vafot etganidan so'ng shahzodalar Urganchga qaytadilar. Ammo poytaxtdagi Turkon xotun tarafdorlari Jaloliddinga qarshi suiqasd uyushtiradilar. Bundan o'z vaqtida ogohlantirilgan Jaloliddin 300 nafar suvoriy bilan Xo'jand hokimi Temur Malik hamrohligida shahardan chiqib ketadi. Shahzodalarning o'z nufuzi va mavqeidan yoxud mamlakat boshiga tushgan notinchliklardan foydalanib, taxtni egallash uchun otasiga yoki og'a-inilariga qarshi bosh ko'targanliklariga tarixda ko'plab misollar topiladi. Jaloliddin esa el-yurt ozodligi yo'lida o'zining qonuniy huquqidan ham voz kechib, umum manfaati uchun shaxsiy manfaatlarini qurbon qila oldi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xorazmshohning hamma o'g'illarida ham shunday xislatlar yetarli bo'lmaganliga pirovard-natijada ularning va umuman Xorazmshohlar davlatining halokatiga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Masalan, G'iyosiddin Pirshohni olaylik. Jaloliddin Sind daryosi bo'yidagi jangda butun lashkaridan judo bo'lib, kuch to'plash uchun Pirshoh tasarrufidagi yerlarga kelganida, u akasiga qarshi 30 ming kishilik qo'shin yuboradi. Pirshohning onasi Beklaroy hamda amirlarning sa'y-harakatlari bilangina birodarkushlik urushining oldi olinadi. Keyinroq, 1228 yilda Isfahon shahri yonida mo'g'ullar bilan bo'lajak muhim jang arafasida Pirshoh o'z qo'shinini olib, qochib ketadi. Ushbu jangda garchi Jaloliddin g'alabaga erishgan bo'lsada, bu g'alaba katta kalafot evaziga qo'lga kiritildi. Ayni chog'da adolat yuzasidan shuni ta'kidlash joizki, xorazmshohning barcha o'g'illari o'z xonadoni va oliy rutbalari sha'niga dog'tushirmay, qo'llarida shamshir bilan halok bo'ldilar. O'zloqshoh bilan Oqshoh tengsiz jangda vahshiylarcha o'ldirildi. Rukniddin G'ursanchti esa Ustunovaid qal'asida (Ustunovand - hozirgi Eron hududidagi qadimiy shahar) 6 oy davomida dushman holini tang qilib, oxiri madad yetishmasliga oqibatida asir olindi. Mo'g'ul sarkardasi

Toymas po'yon undan tiz cho'kib ta'zim etishni talab qilganida G'ursanchti qiynoq-azob va o'limni afzal ko'rdi. Jaloliddindan farqli o'laroq, bu shahzodalarga g'anim bilan munosib kurashish uchun faqat bir muhim narsa yuksak harbiy mahorat yetishmagan ko'rinadi. Jaloliddinga har bir ishi uchun zarur narsalar ato etilgan ekan, u holda unga nima yetishmadi? Jaloliddin Manguberding sarkarda sifatidagi mahoratiga munosib baho berish uchun u qarshi kurashgan asosiy dushman, ya'ni mo'g'ullarning harbiy qudratini to'g'ri baholash zarur. Adolat yuzasidan shuni e'tirof etish joizki, Shimoli-sharqiy Osiyo ko'chmanchilarining asrlar davomida tengi bo'lmagan harbiy san'atini to'la o'zlashtirgan, favqulodda jangari turk-mo'g'ul-tungus qabilalaridan tashkil topgan Chishizxon qo'shini behad katta, bizning odatiy taxayyulotimiz doirasiga sig'mas darajada qudratli va dahshatli kuch edi. Mo'g'ullar jang kechayotgan joy, dushmanning kam-ko'pligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda qay usul yoki hiylani qo'llashni yaxshi bilishar, Xitoydagi urush davomida shaharlarni qamal qilish usullarini ham yaxshi o'zlashtirgan hamda qamal qurollarini yasash va ishlatishni biladigan xitoylik ustalarni o'z xizmatlariga jalb etgan edilar. Ular jang paytlari g'oyat ajib bir jo'shqinlik, to'g'rirog'i, jazava bilan urushar, shiddatli harakatlari va turli hayqirig'u na'ralari bilan yog'iy ko'ngliga vahima solardilar. Tan olish kerak, dushman mard va qat'iyatli edi. Ibn ad-Asirning hikoyasiga ko'ra, bir mo'g'ul askarini asir olib kelishayotganida u o'zini otdan tashlab, katta toshga boptini qattiq urib jon taslim qiladi. Ayni paytda Turon sarhadlarini vatan tutgan xalqlarning el-yurt himoyasi, erk va ozodlik masalasi hal bo'layotgan vaqtda azmu shijoati, harbiy mahorat bobidagi salohiyati ham tarixdan yaxshi ma'lum. Faqat odamlarni o'ziga ergashtira oladigan, har bir ishining sir sinoatlaridan boxabar, qudratli yo'l boshchi topilsa bas. Jaloliddin Manguberdi ana shunday yo'l boshchi edi. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb qilgan, unga tobe hind mulklarida nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Biroq vaziyat borgan sari murakkablashib bormoqda edi. Eltutmish, Qubacha, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o'zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo'lib qoladi. Jaloliddin Manguberding ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar ham xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o'tadilar. Og'ir vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqiradi. Amirlarning ko'pchiligi Iroqda siyosiy parokandalik hukm surgan bir paytda Iroq tomon yurish qilib, uni G'iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Jaloliddin Manguberdi o'zining Hindistonda zabt etgan mulklariga O'zbek Toy Jahon Pahlavonni, G'ur va G'azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo'l oladi. Cho'lu biyobonlarni kesib o'tishda Jaloliddin Manguberding ko'p jangchilari nobud bo'ladi va nihoyat u 4 ming jangchisi bilan Kirmonga yetib keladi. G'iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibi Baroq Hojib Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so'ng Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi

Sherozga keladi. Fors hokimi Sa'd ibn Zangiy va Yazd hokimi Alouddavla ibn To'g'onshoh unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo'shini qurol-aslaha bilan ta'minlanadi. Bu hol G'iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg'a-salomlar bilan Odekni elchi sifatida jo'natadi va o'zaro nizoni tinchlik bilan hal etadi. Qo'shin boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga o'tadi.[3] Ular bilan bo'lgan qator janglarda qo'li baland kelgan bo'lishiga qaramay, Hindistonda muhim o'rnashish, ittifoqchilar topish mushkul ekanligini anglab, u yerdan Eronga, 1224 yili esa Ozarboyjonga kelib, uni zabt etdi. Shu vaqtdan e'taboran Jaloliddinning Ozarboyjon va unga qo'shni mamlakatlar (Eron, Gurjiston, Ko'niya, Anatoliya, Iroq va boshqa arab mamlakatlari) hududlaridagi faoliyati boshlanadi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog'a shahrini jangsiz qo'lga kiritadi. Damashq, Erbil hokimlari esa u bilan ittifoq tuzishga rozi bo'ladilar. O'zbek Tabrizni tashlab Ganjaga, so'ng Alinjo qal'asiga qochib o'sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi Malika xotunga uylanadi. Tabrizda bir necha kun turgandan so'ng o'z qo'shinini Gruziya tomon boshlaydi. 1225-yil avgustda Garni qal'asi yaqinida gurjilarning Ivane Mxargrdzeli boshliq 60 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltiradi va Tiflisga qarab yuradi. Gruziya malikasi Rusudana Kutaisiga ko'chib o'tadi. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimi o'z tobeligini bildiradi. Tarixchilarning yozishicha, urush arafasida Shalva (gurjilarning eng qudratli lashkarboshisi) raqib taraf elchisini kutib olganida yiqqan qo'shinini pesh qilib, shunday degan ekan: "Men ayni shu paytda, davrimda amir al-mo'minin Ali (ibn Abu Tolib hazrat Ali, to'rtinchi xalifa) tirik bo'lishini istardim. Shunda men unga kuch qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yardim, u Badr va Xaybar janglarini esdan chiqarardi". Shalvaning bu maqtanchoqligi asosida Badr jangi — 624 yilning martida Muhammad (s.a.v.) tarafdorlari tomonidan Islom dini uchun kurash jangi nazarda tutilgan. Bu kurash Arabiston yarim orolida islomning keng tarqalishiga yo'l ochib bergan. Xaybar — Madina va Damashq oralig'ida joylashgan voha. 628 yilda Muhammad (s.a.v.) tomonidan zabt etildi. Rivoyat qilishlaricha, hazrat Ali ikkala jangda ham noyob jasorat ko'rsatgan.[4] 1231 yili, Jaloliddinning vafotidan biroz ilgari mo'g'ullar Ozarboyjonga bostirib kirganlarida Jaloliddin qo'shni mamlakatlar hukmdorlariga chopar yuborib, shunday murojaat qiladi: «Mo'r-malaxdek beaded tatar (ya'ni, mo'g'ul) lashkarlari yaqinlashmoqdaki, ulardan iya qal'a va na shaharlar omon qolajak. Bu taraflar jangchilarining dilida ulardan qo'rquv va hayiqish joy olmishdir. Basharti men oradan chiqsam, sizlarda ularga qarshi turishga imkon qolmagan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkunki Jaloliddin Manguberdi, shuningdek, Turkmanistonda ham hurmat qozongan bo'lib, uning mo'g'ullarga qarshi jasorati bugungi kunda ham tarannum etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 72 b..
2. Ishmuhammedov.R., Abduqodirov. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 8 t. 2004. – B. 263.
4. Abulg‘ozi Bahodirxon Shajarai turk. - T.: "Cho‘lpon": 1992. 9-bob
5. Islom. Ensiklopediya. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 320 b